



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/3



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 3-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 3 - SON
2026

Google Scholar



zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Academic
Resource
Index
ResearchBib

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



O‘sib kelayotgan yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Jumaboyev J

O‘zbekiston Respublikasining IIV Malaka Oshirish instituti

Jangovar va jismoniy tayyorgarlik sikli boshlig‘i, podpolkovnik

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni diniy ekstremizm, aqidaparastlik va narkotik moddalar, shu jumladan, kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar xavfidan himoya qilish Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu shunchaki harbiy tayyorgarlik emas, balki ularning ongiga milliy g‘urur, davlat ramzlariga hurmat va yurt taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga qaratilgan keng qamrovli jarayon hisoblanadi. Yosh avlodning ongidagi har-xil yod g‘oyalarni singdirilishini to‘xtatilib qolinishini va keltirib chiqaruvchilarni yurtimizdan butkul tozalashga qaratilgan siyosatlar va bu haqida muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borilyotgan siyosatlar, Vazirlar Mahkamasining ishlab chiqarilgan qarorlardan olingan xulosalar va muxtaram Prezidentimiz tomonidan “Yoshlarni qo‘llab quvvatlashga doir” keg ko‘lamli siyosatlari joriy qilindi.

Kalit so‘zlar: diniy ekstremizm, aqidaparastlik, narkotik modda, milliy g‘urur, davlat ramzlari, daxldorlik hissi, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi, sivilizatsiya, hissiyot, konsepsiya, islohat, jamiyat, yo‘l xaritasi, Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch.

Аннотация. В данной статье рассматривается воспитание молодежи в духе патриотизма как одно из приоритетных направлений государственной политики Узбекистана. Защита молодого поколения от угроз **религиозного экстремизма, фанатизма и наркотических средств**, в том числе сильнодействующих веществ, является важнейшей задачей. Воспитание молодежи в духе патриотизма — это не только военная подготовка, но и комплексный процесс, направленный на формирование в их сознании **национальной гордости, уважения к государственным символам и чувства сопричастности** к судьбе Родины.

В работе анализируется политика, направленная на пресечение проникновения различных чуждых идей в сознание молодежи и полное искоренение факторов, способствующих их распространению. Также приводятся выводы, основанные на широкомасштабных реформах и указах, инициированных уважаемым Президентом, а также постановлениях Кабинета Министров, направленных на всестороннюю **поддержку молодежи**.

Ключевые слова: Религиозный экстремизм, Догматизм, Наркотическое вещество, национальная гордость, Государственные символы, Чувство сопричастности, Патриотизм, национальные ценности, Наследие предков, Цивилизация, Эмоция, Концепция, Реформа, Общество, Дорожная карта.





Abstract. This article discusses the patriotic upbringing of youth in Uzbekistan as one of the most stable directions of state policy. Protecting youth from fanaticism and drug addiction, including healthy eating under strong influence, is not military training for food, but a comprehensive process of forming national pride, respect for state symbols, and a sense of involvement in the fate of the country in young people. In order to completely eliminate the current ideas of the younger generation, the laws regulating our esteemed President in this regard, programs based on the resolutions of the Cabinet of Ministers, and a large-scale policy "On Support for Youth" formulated by our esteemed President have been implemented.

Key Words: Religious extremism, dogmatism, narcotic substance, state symbols, sense of belonging, patriotism, national values, heritage of ancestors, civilization, feeling, concept, reform, society, roadmap

Kirish. O'zbekistonda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha mustahkam huquqiy bazaga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari (O'RQ), Prezident Farmonlari (PF), Prezident Qarorlari (PQ) va Vazirlar Mahkamasi Qarorlari (VMQ) bilan tartibga solindi. Bulardan bitta misol O'zbekiston Respublikasi Qonunlarning O'RQ-406-sonli qonunda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi mavzusida hujjat tuzilgan. Bu asosiy hujjat bo'lib, unda yoshlarni vatanparvarlik, qonunlarga hurmat va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlatning siyosatining asosiy vazifasi etib belgilangan. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning huquqiy poydevori hisoblanadi. Ushbu qonun shunchaki qoidalar to'plami emas, balki yosh avlodni milliy o'zlikni anglash va Vatanga sadoqat ruhida voyaga yetkazishning davlat strategiyasi hisoblanadi. Qonunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish. Qonunlarga hurmat va huquqbuzarlikka nisbatan murosasizlik. Yoshlarni milliy an'analar, ona tili va tarixga hurmat ruhida tarbiyalash. Vatanparvarlik tarbiyasi faqat "shiorlar" bilan emas, balki aniq tizim orqali amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Yoshlarga ajdodlar merosini o'rgatish orqali g'urur hissini uyg'otishga, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga jalb qilinish orqali ularda "Bu — mening Vatanim, uning taqdiri menga bog'liq" degan tushunchani shakllantirishga qaratilishi kerak. Qurolli Kuchlar bilan hamkorlikda yoshlarni vatan himoyasiga tayyorlash. Qonunga ko'ra, yoshlar tarbiyasi bilan nafaqat ta'lim muassasalari, balki butun jamiyat shug'ullanishi shart deb belgilangan. Buning asosiy bo'g'in sifatida Mahalla va oiladan Vatanparvarlik ruxida tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini etib e'tirof etildi. O'RQ-406 qonuni yoshlarni nafaqat bilimli mutaxassis, balki o'z mamlakatining taqdiri uchun mas'uliyatni his qiladigan vatanparvar shaxs qilib tarbiyalashni davlatning qat'iy talabi qilib qo'yilgan. O'RQ-406 qonuni vatanparvarlikni faqat hissiyot emas, balki ijtimoiy mas'uliyat sifatida talqin qiladi. Ya'ni, haqiqiy vatanparvar — bu o'z huquq va





majburiyatlarini biladigan, qonunlarga itoatkor va jamiyat rivojiga hissa qoʻshadigan faol fuqarodir.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oʻzbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" mamlakatimizda ushbu sohadagi ishlarni tizimli ravishda tashkil etishning "yoʻl xaritasi" hisoblanadi. Ushbu hujjatlarda yoshlarning dunyoqarashi va yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, vatanparvarlik tarbiyasining 5 ta uzviy bosqichi belgilab berilgan.

Vatanparvarlik tarbiyasining 5 ta bosqichi

Bosqich	Yoshi / Maqsadi	Asosiy yoʻnalishi
1-bosqich	3–7 yosh (Maktabgacha taʼlim)	Oilaga, mahallaga, tabiatga va "Kichik Vatan"ga mehr uygʻotish. Davlat ramzlari bilan tanishtirish.
2-bosqich	7–10 yosh (Boshlangʻich maktab)	Milliy qahramonlar, xalq ertaklari va tariximiz haqida tushuncha berish. "Oʻzbekiston — mening Vatanim" gʻoyasini singdirish.
3-bosqich	11–17 yosh (Oʻrta maktab / Litsey)	Milliy gʻurur, daxldorlik hissi, harbiy-vatanparvarlik elementlari. Huquqiy ong va ijtimoiy faollikni oshirish.
4-bosqich	18–21 yosh (OTM / Harbiy xizmat)	Kasbiy mahoratni Vatan manfaati bilan bogʻlash. Milliy armiyaga hurmat, harbiy xizmatga tayyorgarlik va sadoqat.
5-bosqich	22–30 yosh (Mehnat faoliyati)	Jamiyatda oʻz oʻrnini topish, davlat islohotlarida faol ishtirok etish. Oila muqaddasligi va uni himoya qilish masʼuliyati.

Konsepsiya vatanparvarlikni shunchaki harbiy bilim emas, balki keng qamrovli tushuncha sifatida talqin qiladi. Yoshlarda mamlakatimizdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik hissini shakllantirish, tashqi "axborot xurujlari"ga qarshi gʻoyaviy immunitetni mustahkamlash. Oʻzbekiston Qurolli Kuchlari bilan gʻururlanish, yoshlarni harbiy xizmatga maʼnaviy va jismoniy jihatdan tayyorlash. Qonunlarni hurmat qilish, fuqarolik masʼuliyati va jamiyatda oʻrnatilgan tartib-qoidalarga qatʼiy rioya etish. Milliy til, madaniyat va ajdodlarimizning buyuk merosini asrab-avaylash hamda uni dunyoga targʻib qilish. Ushbu konsepsiyada Vatanparvarlik ruhidagi tarbiya tizimini amaliyot bilan bogʻlovchi eng muhim tadbirlar — "Vatanparvarlar" harbiy-sport oʻyinlari va "Mard oʻgʻlon" davlat mukofotidir. Ushbu tadbirlar yoshlarning nafaqat jismoniy, balki maʼnaviy yetukligini ragʻbatlantirishga xizmat qiladi. "Vatanparvarlar" harbiy-sport oʻyinlari musobaqasi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash va jamoada ishlash koʻnikmalarini shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Buning uchun Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi hamkorligida tashkil etiladi. Bu turdagi oʻyinlarni umumtaʼlim maktablarining yuqori sinf oʻquvchilari asosan 10-11-sinf, baʼzi hollarda 8-9





sinflar o'rtasida o'tkazilishi kerak bo'ladi. Bu o'yinlarni asosan 4 bosqichda o'tkazilishi kerak:

1 bosqichda Maktab bosqichi- bu bosqichda sinflardagi yaxshi o'yanay oladigan va o'z jamoasiga foydasi tegadigan jismonan baquvvat yoshlarni saralash bosqichi hisoblanadi.

2 bosqichda Tuman/shahar bosqichi.

3 bosqichda Viloyat (hududiy) bosqichi.

4 bosqichda Respublika (final) bosqichi.

Asosiy asosiy o'yin shartlari-Safda yurish, pnevmatik miltiqdan o'q otish, turnikda tortilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va O'zbekiston tarixi bo'yicha bilim sinovlarini o'z ichiga oladi. O'yin g'oliblariga bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 50 baravari miqdorida pul mukofoti beriladi va ular oliy ta'lim muassasalariga **imtiyozli asosda (test sinovlarisiz)** qabul qilinadi.

Asosiy qism. Vatanparvarlik — bu shunchaki o'zi tug'ilib o'sgan joyini yaxshi ko'rish emas, balki insonning o'z xalqi, tili, dini, madaniyati va davlatining taqdiri uchun mas'uliyatni his qilishi, uning ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishi demakdir.

Eng oddiy darajada vatanparvarlik - bu hissiyotdir. U insonning bolaligi o'tgan mahallasi, ona tili, milliy qadriyatlar va ajdodlar merosiga bo'lgan bog'liqligi. Bu tuyg'u asosan insonga o'zining qaysi sivilizatsiyaga mansubligini va kimligini anglatadi.

Bizning birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan bir nechta asarlarda biz yoshlarga bo'lgan e'tiborni qaratib o'tganlar. Bularga misol tariqasida 2008-yilda nashrdan chiqarilgan "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlaktimizning jahon hamjamiyatdagi obro'-e'tibori avvallambor farandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech unitilmasligimiz kerak. Ushbu asarda xalqimiz tomidan alohida qiziqish va e'tibor bilan kutib olingan Bu kitob jahon miqyosida, xususan islom olamida ham katta qiziqish uyg'otgan. Ushbu asarida yoshlar tarbiyasi markaziy o'rinni egallaydi. Muxtaram birinchi Prezidentimizning ushbu asarida "yoshlarni nafaqat kelajak egalari, balki bugungi kunda ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan asosiy kuchdir" deb ta'riflagan. Asarda ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson jamiyat hayotdagi o'rni va ahamiyati, bu tushunchalarning nazariy hamda amaliy tomonlari turli fikrlar, xulosalar orqali taxlil etilgan. Shuningdek kitobda komil inson va unga xos bo'lgan fazilatlarga alohida ahamiyat qaratilgan.

Ummuman olganda ” Komil “inson qanday bo'lishi kerak?

Komil inson- bu tasavvuf va islom falsafasida eng oliy axloqiy, ma'naviy va aqliy barkamollikka erishgan ilohiy sifatlarni o'zida namoyon etuvchi ideal shaxs timsoli. U yuksak odob tafakkur va nafsini tiyish orqali haqiqatga yetgan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy yetuk inson hisoblanadi. Komil inson yuksak ma'naviyatli, iymon e'tiqotli, ilm-ma'rifatlili va o'z vataniga cheksiz sadoqat egasi hisoblanadi. Haqiqiy komil insonni o'z Vataniga bo'lgan muhabbatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. U o'z xalqining boy tarixi va qadryatlarini bilguvchi va sevguvchi, bilimga chanqoq, doimo yurt taraqqiyotiga va shaxsiy manfaatlardan voz kechib, el-yurt tinchligi va ravnaqi uchun xizmat qilishni talab etadi. Komil inson o'z baxtini butun xalqning farovonligi ichida ko'radi. O'z navbatdagi halol, rostgo'y, mehribon va odobli bo'lish demakdir. Vatan ravnaqi uchun mehnat qilish va kerak bo'lsa jonini ayamayaslik,





boshqalarga yaxshilik qilish, tinchlik va osoyishtalikni, adolatni ta'minlash komil insonga xos bo'lgan xususiyatlar o'z ichiga olgan shaxs hisoblanadi. Sharq mutafakkirlaridan, xususan Alisher Navoiy va Abu Nasr Farobiy qarashlarida, insonning yetukligi uning o'z xalqiga va yurtiga keltirgan foydasi bilan o'lchangan. Inson qanchalik bilimli yoki taqvodor bo'lmasin, agar u o'z Vatani uchun og'irini yengil qilmasa, u to'laqonli "komil" hisoblanmaydi. Komil inson o'zining ma'naviy yetukligi orqali Vatanga eng katta sovg'ani — namunali fuqaroni taqdim etadi. Vatandarlik esa komil inson uchun o'z ezgu fazilatlarini amalda qo'llaydigan eng asosiy maydon hisoblanadi. Shunday ekan, har bir inson o'zini ma'nan yuksaltirishi — bu amalda Vatani uchun poydevorini mustahkamlashi demakdir.

Vatandar adiblirimiz — Fitrat, Cho'lpon, Behbudiy va Abdulla Qodiriy kabi jadedlar — shunchaki asar yozishmagan, balki ular millatning hayot-mamot masalasida o'zlarini olovga otishgan. Cho'lpon uchun vatandarlik — bu sadoqat deb hisoblab. U "Go'zal" she'rida Vatanni dunyodagi eng go'zal timsol sifatida tasvirlaydi va uning ozod bo'lishini muqaddas orzu deb biladi Fitrat ham, Cho'lpon ham parokandalik ya'ni bo'linish-millatning eng katta dushmani deb hisoblab, ularning hayot- faoliyati bugungi kun yoshlar uchun haqiqiy "hayot darslik" sifatida e'tirof etilmoqda Ular millat uchun faqat adabiyot bilan cheklanib qolmasdan, ular kompleks islohotchilar edi. Mablaglari hisobidan yangi usullub maktablarini tashkil qilib, dunyoviy ilmlar va o'sha davrdagi yangi fanlarni ya'ni geografiya, matematika, tabiatshunoslik kabilarni o'qitilishini yo'lga qo'yishgan. "Xalqning ko'zini ochish" va yovuz Sobiq SSR tizmini yo'q qilinishi uchun "Oyna", "Sadoi Turkiston" shunga o'xshash gazetalar va teatr truppalari tuzishgan. Fitrat boshchiligidagi "Ko'mak" nomli jamiyati iqtidorli yoshlarni Germaniya va Turkiyaga o'qishga yuborib, millat uchun kadrlar tayyorlagan.

Xulosa. Vatandarlik ruxini butun yoshlar orasida shakllantirishimiz muxim va uzoq muddatli vazifa hisoblanadi. Bunda ta'lim tizmi, oila, jamiyat va davlatning hamkorligidagi muxim og'ir darajadagi vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning **"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"** asari yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, vatandarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim strategik qo'llanma hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston yoshlarini vatandarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi. 2-b 4 bet, 3-b 5bet ,4-b 8 bet, 5-b 10 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining , yoshlar huquqlari va majburiyatlariga oid boblar ya'ni XIV-bob 79-m,XI-bob 61-64-m. 3 2021-yildagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406 qonun I-b 5-m 2-3 betlar/ IV-b 24 8-10 betlar . "O'zbekiston" NMIU nashryoti
- 4.O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qalamiga mansub **"Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch"** asarining I bob 90-115 betlar Toshkent 2008-yil
5. Shavkat Mirziyoyev – "Yangi O'zbekiston strategiyasi" III- bo'lim 180-210 betlar , IV-bo'lim 220-255 betlar, V-bo'lim 265-300betlar. "O'zbekiston" NMIU nashr 2021 yil
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" asari / 2- jild 2019-yi "O'zbekiston" nashryoti

